IQTISODIY O‘SISH YO‘LIDA INNOVATSION XARAKTERNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MUMMOLARI

To‘xtarova Iroda Muhammad qizi - Farg‘ona davlat universiteti Chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
e-mail: tuhtarovairoda1991@gmail.com

Mamlakat milliy iqtisodiyotining o‘sishi raqobatbardoshlilikning yuqori darajada ekanligi bilan bir qatorda yangi ilmiy va texnologik imkoniyatlarning yuksalishi, ishlab chiqarishda intelektuallashtirishni oshirish omillari hamda milliy xo‘jalik tizimida istiqbolli innovatsion faoliyatning rivojlanishi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Mamlakatimiz xalqaro iqtisodiy jamiyatning bir bo‘lagi sifatida faoliyat yuritar ekan, jahon bozor integratsiyalashuvi jarayonida milliy iqtisodiyotimiz oldida rivojlanishning yangi iqtisodiy stimullarini yaratish talabi qo‘yilmoqda. Shu o‘rinda tizimli samarali innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish barqaror o‘sish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz va industrial rivojlangan mamlakatlar orasidagi masofani sezilarli kichraytirish yo‘lida yangi “yorib chiqish” metodini amalga oshirib yuqori darajadagi iqtisodiy o‘sishga erishish zarur. Shu o‘rinda mamlakat iqtisodiyotini innovatsion intelektual faoliyat hamda yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishga asoslanib tashkil etish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda innovatsiya harajatlarining YaIM dagi ulushi ortib bormoqda va bu ko‘rsatkich 4% dan yuqorini tashkil etadi. Ushbu harajatlarda davlatning ishtiroki o‘rtacha 45-55% ko‘rsatkichiga ega. O‘zbekistonda innovatsiyaga qaratilgan harajatlar YaIM ning 0,15 % ni tashkil etadi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining faqat 1% gina ilg‘or ilmiy texnologiyalar va yangi ilmiy bilimlarga asoslangan xolos. Mamlakatimiz yuksalishiga qaramasdan iqtisodiyotda “yorib o‘tish” holati kuzatilmayapti, bunga sabab esa quyidagilar:

- yangi texnologiya bo‘lsada ular avval o‘zlashtirilgan bo‘lib, innovatsiyani yaratish va uni hayotga tadbiq qilish imkonini bermayapti;
- mamlakat ichki bozorining haddan tashqari monopollashuvi tashkilot va muassasalarning innovatsiyaga stimulini so‘ndirmoqda;
- yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga tadbiq qilish institutlari (milliy innovatsiya tizimi) ning faoliyati samarali olib borilmayotgani va boshqalar.

Respublikamizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasining pastligidir. Innovatsion taraqqiyotning muhim sharti esa oliy ma’lumotli, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sonini oshirishdan iboratdir. Ma’lumotlarga ko‘ra, oliy ta’lim olish yoshidagi (18-22 yosh oralig‘i) aholi soni Rossiya Federatsiyasida 7 mln. kishini,

talabalar soni esa 5,3mln. kishini tashkil qiladi, ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda Ukrainada 2,6 mln. va 1,6 mln., Qozog‘istonda 1,1 mln. va 600 ming, Qirg‘izistonda esa 530 ming va 225 ming kishini tashkil etdi. Rossiya, Ukraina va Qozog‘istonda oliy ta'lim olish yoshidagi kishilarning har uchtadan – ikkitasi, Qirg‘izistonda esa har ikkitadan – bittasi oliygoh talabasi bo‘lgan. O‘zbekistonda esa 2021-yilda oliy ta’lim olish yoshidagi aholi soni salkam 3 million kishini, jami oliy ta’lim muassasalari soni 131 tani tashkil qilgan, talabalar soni esa 400 ming nafar atrofida bo‘lib, oliy ta’lim olish yoshidagi kishilarning o‘ntadan bittasigina oliy ta’lim muassasalarida tahsil olgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2024-yilning 1 yanvar holatiga respublikamiz doimiy aholisi soni 36 million 799,8 ming kishini, shu jumladan, yoshlar (14-30 yosh) ning ulushi umumiy aholining 26,8 foizini yoki 9 million 654,4 ming kishini tashkil qiladi. Hozirgi davrda ham faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalarining soni oliy ta’lim olish istagi bor barcha yoshlarimizni sifatli ta’lim bilan qamrab olish imkonini bermaydi. Bu muammoni bartaraf etish oliy ta’lim muassasalari sonini oshirish bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan quyidagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra oxirgi yillarda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida asosiy mutaxassislik yo‘nalishi bo‘lib gumanitar va pedagogika sohasi hisoblanadi (54,8%), bu kelajakda inson kapitalini o‘sishiga omil bo‘ladi, lekin bitiruvchilarning ishlab chiqarish-texnik sohadagi ulushi (25,2%) ishlab chiqarishda innovatsiyaning olib kirilishini susaytirmoqda.

O‘zbekiston OTM talabalarining sohalarga oid mutaxassisliklar ulushi (%)

Ishlab chiqarish-texnik	25,2 %	Xizmat ko‘rsatish	4,5 %
Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq	5,2 %	Sog‘liqni saqlash	4,4 %
Qishloq va suv xo‘jaligi	5,9 %	Gumanitar va pedagogik	54,8 %

Inson kapitalining o‘sishi iqtisodiyotni samaradorligini ta’minlaydi. Lekin iqtisodiy o‘sish yo‘lida innovatsion xarakterni shakllantirishda inson omilini kompleks o‘rganish zarur shunda mehnat unumdorligi innovatsiyaga asoslanib o‘sadi. Bu yo‘nalishda chora-tadbir etib:

- respublika ta’lim tizimini isloh qilish negizida iqtisodiyotning jadal suratlar bilan o‘sishining fan, ta’lim va ishlab chiqarish mutanosibligini ta’minlash;

- ta’lim va fan yutuqlarini xususiy sektorga joriy qilish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish;

- ilmiy tadqiqotlar xalqaro integratsiyalashuvi jarayoni bilan xamoxangligini ta’minlash;

- ta’lim muassasalari va boshqa subyektlar orasida innovatsion hamkorlikni yanada ta’sir doirasini kengaytirish hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolli innovatsion faoliyatni tashkil etishda davlatning o‘rni ahamiyatlidir. Bu yo‘nalishda ma’muriy, huquqiy va iqtisodiy islohotlarni kompleks joriy qilish xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усиление потенциала для МЧР в Узбекистане. Материалы VII-республиканской ярмарки инновационных идей, технологий и проектов. Ташкент, 25 апреля 2014 г.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi materiallari. O‘zbekiston - raqamlarda 2022. Toshkent: 2022 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. Toshkent: 2019 y.

4. Yunusov H.M. O‘zbekistonda oliy ta’lim islohotlarining dolzarb muammolari va ularni hal etishda AQSH tajribasining ahamiyati https://cyberleninka.ru/article/n/